



DAVLATNING IQTISODIY-IJTIMOY RIVOJLANISH DASTURLARI ZARURIYATI

Jabborov Jasur Bozorovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish dasturlarining ahamiyati va zaruriyati tahlil qilinadi. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturlari davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, aholi farovonligini oshirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish uchun muhim vositadir. Maqolada bunday dasturlarni ishlab chiqishda o'zgaruvchan global va mintaqaviy sharoitlar, resurslar taqchilligi, innovatsion yondashuvlar va ijtimoiy masalalarni hal etishga qaratilgan strategiyalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, davlat dasturlarining samaradorligini oshirish, ularni moliyaviy ta'minlash va monitoring qilishning asosiy yo'nalishlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, davlat dasturlari, barqaror rivojlanish, strategiya, moliyaviy ta'minot, monitoring, aholi farovonligi, innovatsiyalar, resurslar

Kirish. O'tgan asrning 70-yillarigacha «iqtisodiy rivojlanish» deyilganda mamlakatning ishlab chiqarishni aholi o'sish sur'atlaridan yuqoriroq sur'atlarda oshirish qobiliyati tushunilgan, rivojlanish jarayonining miqdoriy o'lchovi sifatida «iqtisodiy rivojlanish darajasi» tushunchasi xizmat qilgan va u mamlakat milliy daromadini uning aholi soniga bo'lish orqali aniqlangan. Milliy daromadning o'sish sur'atlari qanchalik yuqori bo'lsa, aholining o'sish sur'atlariga nisbatan tezroq ortgan mamlakatda iqtisodiy rivojlanish darajasi tez sur'atlar bilan oshib borgan.

Ilmiy tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi yuqori o'sish sur'atlariga erishgan bo'lsa-da, bu boradagi ko'rsatkichlarni uzoq vaqt saqlab qola olishmagan. Chunki ularda iqtisodiy o'sish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga olib kelmagan.

Hududlar iqtisodiyoti doirasida hududlar rivojlanishini boshqarish va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish mexanizmini o'rganish zarur hisoblanadi. G.V. Gutman, A.A. Miroyedov, S.V. Fedin kabi olimlar fikrlariga ko'ra, ishlab chiqarishni joylashtirish masalalari hududni o'rganuvchi fanlar tizimining yagona yo'nalishi emas. Ushbu fan tizimining asoschisi U.Izard hisoblanadi. Aynan U.Izard va V.Leontyevlar hududiy tashkilotlar iqtisodiyotini boshqarish, rejalashtirish, prognozlash va strategik boshqaruv kabi masalalarni qo'shgan holda





hududiy fanlar predmeti doirasini kengaytirdilar.

Hudud iqtisodiyotini tadqiq etish obyekti, fan nomlanishidan ma'lum bo'lganidek, mamlakat hududlari hisoblanadi. "Hudud" atamasi aniq bir ma'noli izohga ega emas va turli xil fan yo'nalishlari va tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi. "Hudud" va "tuman" (mintaqa) tushunchalarining yuzga yaqin izohlari mavjud.

Iqtisodiy geografiya va hududlar iqtisodiyotida "hudud" atamasi ko'p ma'nolarda qo'llaniladi. Ilmiy adabiyot va davriy nashrlarda ushbu atamadan "tuman" tushunchasi sekin-astalik bilan siqib chiqarilmoqda. Ko'p hollarda "tuman (rayon)" atamasi "iqtisodiy rayon" va "ma'muriy rayon" tushunchalari bilan birgalikda ishlatiladi. "Hudud" tushunchasi nisbatan egiluvchan hisoblanadi.

T.M. Axmedovning fikriga ko'ra, eng avvalo, o'z hokimiyati va boshqaruv organlariga ega bo'lgan ijtimoiy – iqtisodiy va moddiy – hududiy tizimlarni o'zida aks ettiruvchi aniq bir maqsadga yo'naltirilgan mintaqaviy birliklarni hudud deb tan olish kerak. Bunday tizimlarga turli xildagi ma'muriy–hududiy (milliy-davlat) birliklar misol bo'ladi.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatiga ko'ra olimlar quyidagi ta'riflarni keltiradilar "Hudud – bu oddiy bir maydon emas. U eng avvalo, iqtisodiy kategoriya, shuningdek ishlab chiqarish kuchlari tashkilotlari va uzoq muddatli hududiy rejalashtirish va prognozlashtirish obyekti hisoblanadi. Bundan tashqari mazkur tushuncha ichki hududiy ishlab chiqarish va iqtisodiy aloqalarning yetarlicha yuqori darajasiga ega ishlab chiqarish xo'jaliklari va ijtimoiy infratuzilmaning birikmasi hisoblangan, tabiiy resurslar kompleksi asosida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan, nisbatan bir turdagi tabiiy resurslariga ega yirik maydon (kenglik) tushuniladi".

Qiyinligiga qaramasdan, hududlar chegarasini aniqlash – har qanday hududiy rivojlanish nazariyasining muhim asosi bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy fanlar tizimida butun bir mamlakatni bir nuqta deb qaraladi, vaholanki, bu real iqtisodiy munosabatlar haqidagi tasavvurni noto'g'ri talqin qilinishiga sabab bo'ladi. Sun'iy chegaralarni o'rnatish mumkin emas va mamlakat maydonini hududlarga aniq bo'lishning imkoni yo'q.

Yevropaning rivojlangan davlatlarida, shuningdek, Yaponiyada ham ilmiy tadqiqot obyekti sifatida hudud deganda turli iyerarxik darajadagi ma'muriy – hududiy birlik yoki ular asosida tashkil etilgan dasturli rayonlar tushuniladi, shuningdek, ushbu mamlakatda ishlab chiqilgan mintaqaviy rivojlanish nazariyalari mamlakat hukumati amaliy faoliyati bilan o'zaro chambarchas bog'liq va statistik ma'lumotlarga asoslangan bo'ladi.

Hududlarni aniqlashning asosiy mezonlaridan biri – o'z hukumati va boshqaruv





organlariga ega bo'lishi hisoblanadi. A.M. Sodiqovning fikriga ko'ra, O'zbekiston sharoitida hudud deganda, Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat, Toshkent shahri, shuningdek, respublikaning ma'muriy – hududiy birliklari tushuniladi. Misol uchun, Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlaridan tashkil topgan Farg'ona mintaqasi (iqtisodiy rayoni). Mamlakatimiz sharoitida ma'muriy rayonlar va shaharlarni hudud deb qarash mumkin emas, vaholanki, Rossiyada ba'zi olimlar ma'muriy rayon va shaharlarni ham hudud sifatida o'rganishadi.

Shunday qilib, “hudud” tushunchasi yagona bir ma'noga ega emas. Biz hudud iqtisodiyoti doirasida “hudud” tushunchasiga ijtimoiy-iqtisodiy tizimning o'ziga xos butunligini ifodalovchi, mamlakatning boshqa hududlaridan xo'jalik yuritish ixtisosligi va iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan farqlanib turuvchi mintaqaviy birlik sifatida qaragan olimlarning fikriga to'la qo'shilamiz. Hududning asosiy xususiyatlari – uning bir butunligi va o'ziga xosligi, iqtisodiy bog'liqligi va xo'jalik yuritishdagi uyg'unligi hamda alohida sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlariga ixtisoslashganligi hisoblanadi.

Hududlarda kompleks rivojlanishning ahamiyati nafaqat ko'rsatilgan hududiy nomutanosibliklar, ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi va noo'rin moddiy yo'qotishlar bilan bog'liq, balki ishlab chiqarish kuchlarini hudud shakliga qarab tashkil etilishi va mamlakatda unga mos bo'lgan adekvat yangi hududiy – sektorial iqtisodiy boshqaruv tizimi bilan asoslanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda «Iqtisodiy rivojlanish» [5] tushunchasi o'tgan asrning oxirgi choragida mazmunan chuqurlashdi. Bunga fan-texnika inqilobi va uning ta'sirida ishchi kuchi sifatiga qo'yiladigan talablar oshishi sabab bo'ladi. «Inson kapitali» qo'yilmalari samarali iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi obyektiv zarurat sifatida tan olindi.

Yuqoridagi qayd etilgan «Iqtisodiy rivojlanish» tushunchasida shu narsaga e'tibor berish kerakki, hayot sifatining yaxshilanishi birinchi navbatda barcha aholi daromadlarining o'sishiga – mamlakatda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha pul daromadlarining o'sishiga bog'liq qilib qo'yiladi.

«Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish» tushunchasiga ta'rif berib ko'raylik va uning o'zi nimani anglatishini aniqlaylik. Ta'rif berishdan oldin ushbu tushunchaning zarurati nimada ekanligini ko'rib chiqamiz. Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyotni davlat tomonidan samarali boshqarishga mahalliy xususiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan hal etilgandagina erishiladi.

Hududlarning iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish zarurati ijtimoiy-iqtisodiy





muammolarni (bandlik, ijtimoiy himoya, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar) o'zlariga biriktirilgan daromadlar manbalari hisobiga hal etishda ko'proq erkinlik va vakolatlar berilganda yuzaga chiqadi. Natijada, hududlarning iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish respublika hokimiyat organlari tomonidan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonlariga ta'sir etish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Aytish joizki, hududiy siyosatni amalga oshirish shakllaridan biri davlatning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturlari hisoblanadi. Hudud iqtisodiyoti va ijtimoiy soha obyektlarini rivojlantirishda davlatning to'g'ridan-to'g'ri ishtiroki manzilli tartibga solish yo'llaridan biri mamlakatda investitsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy iqtisodiy mexanizmi byudjet tizimi hisoblanadi.

Bizningcha, hududlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish davlat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismidir va hududlarning iqtisodiy rivojlanishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosi hisoblanadi.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish davlatning ta'sirida aholi turmush darajasini oshirish, barcha mulk shaklidagi xo'jalik subyektlarining erkin faoliyatini tartibga solish hamda umumiy makroiqtisodiy (soliq-byudjet, moliya-kredit), ijtimoiy, ekologik, tarkibiy-investitsion, tashqi iqtisodiy siyosat va institusional tarkibiy o'zgarishlarda o'z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gutman G.V., Miroyedov A.A., Fedin S.V. Upravleniye regionalnoy ekonomikoy. M. Finansi i statistika. 2002. S. 20.
2. Rodionova I.A. Regionalnaya ekonomika. M.: Ekzamen, 2003. S. 9.
3. Axmedov T.M. Regulirovaniye territorialnoy organizatsii proizvoditelnix sil i kompleksnogo razvitiya regionov Uzbekistana. Tashkent: Fan, 1992. S. 8.
4. Sergeyev M., Pixova I., Demenov A. Regionalnaya ekonomika i zakonomernosti yeye razvitiY. M., 1985. S. 10.
5. Rasulov D. Stabilizatsiya ili ekonomicheskoy rost. //«Ekonomicheskoy vestnik, RUz», № 2, 1998.